

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TURKIYANING SURIYA SIYOSATIDA KURDLAR OMILI: MILLIY XAVFSIZLIK VA GEOSIYOSIY MANFAATLAR UYG'UNLIGI

Nazarova Fotima Raimjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: nfotima21@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6525-0291>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Turkiyaning Suriyaga nisbatan tashqi siyosatida kurdlar omilining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Suriyadagi kurdلarning siyosiy faollashuvi, Suriya shimolida o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarining shakllanishi hamda ushbu jarayonlarning Turkiyaning milliy xavfsizligi va hududiy yaxlitligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Anqaraning Suriya yo'nalishidagi siyosati doirasida amalga oshirilgan "Furot qalqoni", "Zaytun novdasi", "Tinchlik bulog'i", "Qishki burgut" va "Panja qilich" kabi harbiy operatsiyalarning siyosiy-strategik mazmuni tahlil etiladi. Maqolada Turkiyaning kurdlar masalasiga nisbatan qattiq kuch vositalaridan foydalanishi nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlash, balki Suriyadagi geosiyosiy mavqeini mustahkamlash va mintaqadagi manfaatlarini ilgari surish vositasi sifatida ham namoyon bo'lishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Turkiya, Suriya, kurdlar omili, kurd masalasi, tashqi siyosat, milliy xavfsizlik, geosiyosat, PKK, PYD, YPG, Rojava, transchegaraviy operatsiyalar, Yaqin Sharq.

КУРДСКИЙ ФАКТОР В ПОЛИТИКЕ ТУРЦИИ В ОТНОШЕНИИ СИРИИ: СОЧЕТАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ИНТЕРЕСОВ

Назарова Фотима Раимжон кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются место и значение курдского фактора во внешней политике Турции в отношении Сирии. Рассматриваются политическая активизация сирийских курдов, формирование структур самоуправления на севере Сирии, а также влияние этих процессов на национальную безопасность и территориальную целостность Турции. Кроме того, анализируется политико-стратегическое содержание военных операций, проведённых Анкарой в рамках сирийского направления своей политики, включая «Щит Евфрата», «Оливковую ветвь», «Источник мира», «Зимний орёл» и «Коготь-меч». Обосновывается, что использование Турцией инструментов жёсткой силы в отношении курдского вопроса выступает не только средством обеспечения национальной безопасности, но и инструментом укрепления её геополитических позиций в Сирии и продвижения региональных интересов.

Ключевые слова: Турция, Сирия, курдский фактор, курдский вопрос, внешняя политика, национальная безопасность, геополитика, PKK, PYD, YPG, Рожава, трансграничные операции, Ближний Восток.

THE KURDISH FACTOR IN TURKEY'S SYRIA POLICY: THE INTERPLAY OF NATIONAL SECURITY AND GEOPOLITICAL INTERESTS

Nazarova Fotima Raimjon qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, PhD Student.

Abstract.

This article analyzes the role and significance of the Kurdish factor in Turkey's foreign policy toward Syria. The study examines the increasing political activism of Syrian Kurds, the formation of self-governing structures in northern Syria, and the impact of these developments on Turkey's national security and territorial integrity. It also analyzes the political and strategic dimensions of Ankara's military operations conducted within the framework of its Syria policy, including *Euphrates Shield*, *Olive Branch*, *Peace Spring*, *Winter Eagle*, and *Claw-Sword*. The article argues that Turkey's use of hard-power instruments in addressing the Kurdish issue serves not only as a means of safeguarding national security but also as an instrument for strengthening its geopolitical position in Syria and advancing its regional interests.

Keywords: Turkey, Syria, Kurdish factor, Kurdish issue, foreign policy, national security, geopolitics, PKK, PYD, YPG, Rojava, cross-border operations, Middle East.

Kirish. Turkiyaning Yaqin Sharq bo'yicha siyosatida kurdlar masalasi muhim va ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib kelgan va istiqbolda ham shunday bo'ladi. Garchi kurdlar to'rt davlat — Turkiya, Eron, Suriya va Iroq orasida

bo'linib ketganiga qaramay, bu yerda Turkiyaning faol roli juda katta hisoblanadi. Chunki Turkiya nafaqat Yaqin Sharq, balki islom olamida ham yetakchilikni qo'ldan boy bermaslikka harakat qilmoqda. Kurdlar muammosining zamonaviy Turkiya tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi, o'z navbatida, ushbu etnosiyosiy masalaga nisbatan munosabatlar bo'lishi istiqbolda Turkiya oldida qator muammolarni paydo qilishi ehtimoldan yiroq emas.

Turkiya tashqi siyosatida kurdlar omili Turkiyaning o'zida yashaydigan kurdlar bilangina belgilanmaydi. Kurdlar masalasi Suriyadagi hozirgi qaltis vaziyatda ham katta o'rinni egallamoqda. Suriyadagi kurdarning Turkiya milliy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, Suriya kurdlarining terroristik va separatistik harakat sifatida baholanishi Anqara tashqi siyosiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Agarda Suriyada vaziyat yanada keskinlashadigan bo'lsa, Iroqdagi kabi kurdlar mamlakatda katta ta'sir doirasiga ega bo'lishi muqarrar. Bu holatda Yaqin Sharqdagi kurdarning ta'sir doirasi kengayishi va Eron hamda Turkiya hududiy yaxlitligi uchun katta xavf tug'dirishi tabiiy. Shu bois R. Erdo'gan tashqi siyosatida kurdlar masalasi Suriyadagi harbiy-siyosiy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatish va shu orqali kurdarning ikki davlat chegarasidagi harakatlarini keskin kamaytirishga asoslanadi. Xususan, Turkiya tomonidan "Furot qalqoni", "Zaytun novdasi", "Tinchlik bulog'i", "Panja qilich" va "Panja kalit" singari operatsiyalarning amalga oshirilishi to'g'ridan-to'g'ri Suriya va Iroqdagi kurd harakatlarini yo'q qilishga qaratilgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur ishni yoritib berishda xorijiy Sharq va G'arb tadqiqotchi olimlari va mutaxassislarining ilmiy adabiyotlaridan ham samarali foydalanishga harakat qilindi. Shu jihatdan, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar muammoning u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, bitiruv malakaviy ishida zamonaviy kurdlar masalasi bo'yicha tadqiqot olib borgan mahalliy olim Farhod Karimovning "Yaqin Sharqda etnik kurdlar muammosi" [1; 110-b.] nomli monografiyasi va "Yaqin Sharq davlatlaridagi etnosiyosiy jarayonlarda kurd omili" [2; 20-b.] mavzusidagi siyosiy fanlar doktorligi dissertatsiyasi alohida o'rin egallaydi. Unda etnik muammolar va ularning nazariy asoslari, kurdlar va Kurdiston muammosining Yaqin Sharq geosiyosiy jarayonlariga ta'siri va ushbu muammoni hal etish masalalari haqida atroflicha tadqiq etiladi. Shuningdek, mahalliy olim Azimov H. Y.ning "Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri" [3; 126–127-b.] nomli siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ham mavzuni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy olimlardan Işyar Ö. G. [4; 414-b.], Erkmen S. [5; 5-b.], Mazur O. A. [6; 32–37-b.], Uzun A. [7; 13–18-b.] kabi olimlarning ilmiy ishlari Yaqin Sharqdagi kurdlar muammosi, jumladan, Turkiya, Iroq, Eron va Suriya davlatlarining kurdlar masalasidagi siyosati hamda ushbu muammo bilan bog'liq yirik davlatlarning tashqi siyosiy qarashlarini o'rganishda yaqindan yordam beradi.

Umuman olganda, kurdlar va ular bilan bog'liq Yaqin Sharqda Kurdiston davlatchiligidan tuzilishi hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Bu esa mazkur mavzuni kengroq o'rganishni, Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlarni ilmiy asoslar bilan tahlil etishni taqozo etadi.

Muhokama.

Suriyadagi kurdarning umumiy soni so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, taxminan 2,5 millionga yaqin deb ko'rsatilmoqda. Ularning uchdan bir qismi Halab shimolidagi Toros tog'lari etaklarida, teng qismi esa Jaziradagi Turkiya chegarasi bo'ylab yashaydi. Yana 10 foizini Aleppo shimoli-sharqidagi Jarabulus yaqinida, 10–15 foizini Damashq chekkasidagi Hayy al-Akradda (kurdlar kvartalida) topish mumkin.

Suriyadagi kurdlar etnik ozchiligi Turkiya, Iroq va Eron kurdlaridan farqli ravishda tarixiy davrlarda markaziy hukumat bilan keskin mojarolarga bormagan. Ayrim tahlilchilarning fikriga ko'ra, Suriya hukumati kurdlardan Turkiyaga bosim o'tkazish maqsadlarida foydalanishni rejalashtirgan. Xususan, 90-yillarda KIP Suriya prezidenti Hofiz al-Assad rejimi tomonidan Turkiyaga qarshi kurash vositasi sifatida ishlatilgan. Darhaqiqat, Suriya Dajla va Furot suvlari ustidan nazorat masalasi hamda Sovuq urush davrida ikki qarama-qarshi blokka tegishli bo'lgan eski tortishuvlar tufayli Turkiya bilan juda ziddiyatli munosabatlarga ega edi. Suriyaning poytaxti Damashq O'jalan uchun Turkiyaga qarshi hujumlarni amalga oshirishda tayanch nuqta va xavfsiz boshpana bo'ldi. Shunday bo'lsa ham, 1998-yilda Turkiya va Suriya o'rtasida imzolangan Adana bitimi Suriya kurdleri uchun tashqi yordamni cheklab qo'yar edi. Professor Umar Guksel Ishyarning yozishicha, "imzolangan ushbu bitim Suriyadagi, umuman Yaqin Sharqdagi kurd harbiy guruhleri uchun tom ma'noda falokatga teng edi" [1]. Suriya hukumati qarori bilan O'jalan mamlakat hududidan chiqarib yuborildi. Ushbu voqea KIP yetakchisining avval Rossiyaga, so'ngra Italiyaga qochishi va hibsga olinishiga olib keldi, Italiya hukumati esa uni Turkiyaga ekstraditsiya qildi. 1999-yil fevral oyida Turkiya hukumati O'jalanni Keniyada, Nayrobidagi Yunoniston elchixonasidan Keniya poytaxti aeroportiga olib ketayotganida hibsga oldi. 90-yillardagi KIPning yo'li kurdarning mintaqaviy manfaatlar markazida bo'lishini aks ettiradi, bu esa kurd masalasidan tashqaridagi manfaatlar edi. Suriyaning kurd partizanlarini turklarga qarshi qo'llab-quvvatlashi bilan bir vaqtda, kurd ozchiliklari uchun eng nomaqbul yashash sharoitiga ega mamlakat edi. Aslida, 200 ming suriyalik kurdlar hatto fuqarolikka ham ega bo'lishmagan va 1962-yildan boshlab 2011-yil fuqarolar urushi boshlangunga qadar fuqaroligi yo'q odamlar sifatida yashagan. Yuqorida aytib o'tilganidek, Yaqin Sharq ko'pincha siyosiy aktorlar va ittifoqlardan emas, balki qarama-qarshi manfaatlardan iboratdir. Shunday qilib, O'jalanning hibsga olinishi bilan bog'liq voqealardan bir necha yil o'tgach, Suriyadagi fuqarolar urushi boshlangan paytda Bashar Asad rejimi suriyalik kurdlardan foydalanishga qaror qildi. U ularga fuqarolikni berishga va'da berib, shu yo'l bilan ularni tashkil etayotgan isyonchi guruhlariga qarshi turishga undadi. Aslida, Suriya kurdleri Suriyani vayron qilgan fuqarolik mojarosining asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanib, "Islomiy davlat"ga qarshi rejim bilan qisman itoatkorlik atmosferasidan foydalanib, 2016-yilda mintaqaviy kurdarning o'zini o'zi boshqarish organini tuzdilar. Bu Rojava Kurdistoni deb atalgan edi. Tabiiyki, bunday o'z-o'zini boshqaruvchi organning ta'sis etilishi Suriyada ham xuddi Iroqdagi singari avtonom hududning tashkil topishi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilar edi. Rojava Kurdistoni Suriyadagi fuqarolar urushi mobaynida yuzaga kelgan zaif davlatchilikning nafaqat bir unsuri sifatida, balki Turkiyaning

ham hududiy yaxlitligi istiqbollarini xavf ostida qoldiruvchi omil sifatida namoyon bo'lar edi. Boz ustiga, qo'shni Suriya hududida avtonom hududning yuzaga kelishi Turkiyaning mintaqadagi raqiblari tomonidan Anqaraning tashqi siyosatdagi mag'lubiyati o'laroq baholanishini ham anglatar edi.

Iroqda Kurdiston avtonom hududining tashkil topishi va Suriyada boshlangan fuqarolar urushining uzluksiz davom etishi suriyalik kurdarning faoliyatida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'la boshladi. Dastavval Suriya kurdleri Bashar Asad rejimiga qarshi muxolifatda bo'lgan edi. Chunki mavjud fuqarolar urushi ularning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini himoya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi va Iroq Kurdistoni singari Suriyaning Rojava (Suriya Kurdistoni) hududida ham avtonom hudud tashkil etish harakatlarini ta'minlashi lozim edi. Shu tariqa Suriya hududida ham kurdarning turli siyosiy tashkilotlari soni ortib bordi. Suriyaning ushbu harakatlarida asosiy rolni Kurdiston demokratik ittifoqi (KDI) egalladi. Suriyadagi geosiyosiy holatning o'ta murakkab ekanligi va mazkur davlat hududlarida ISHID jangarilarining paydo bo'lishi ma'lum ma'noda mintaqadagi kurdarning manfaatlariga mos emas edi. Shu boisdan, kurdarning Suriya va Iroqdagi harbiy "peshmerga"lari ISHIDning ushbu hududlardagi ta'siriga qarshi turuvchi yagona kuch bo'lib qoldi. Suriyaning shimolida ISHID jangarilari bilan kurash olib borishda KIP tomonidan qo'llaniladigan Suriya kurdlarining ko'ngilli askarlari otryadlari — Xalq himoyasi bo'linmasi (YPG) va Ayollar himoyasi bo'linmasi (YPG) asosiy o'rinni egalladi.

Qayd etish joizki, Suriyadagi fuqarolar urushi va hududiy bo'linishlar ushbu mamlakat shimolida Kurdiston avtonomiyasining kuchayishiga olib kelishi ehtimoli ancha yuqori. Boz ustiga, Iroq va Turkiyadagi ayrim kurd harbiy-siyosiy tashkilotlari tomonidan suriyalik kurdarning muntazam qo'llab-quvvatlanishi "Suriya Kurdistoni" mustaqil hududining tashkil topishi, oqibatda bu hudud kurdarning Yaqin Sharqdagi ikkinchi tayanch nuqtasiga aylanishini kuchaytirib yuborishi mumkin.

Natijalar.

Mintaqadagi kurdlar bilan yuz berayotgan bu kabi jarayonlar Turkiya hududiy yaxlitligi va milliy xavfsizligi uchun tahdid sifatida ko'riladi. Agarda Suriyada vaziyat yanada keskinlashadigan bo'lsa, Iroqdagi kabi kurdlar mamlakatda katta ta'sir doirasiga ega bo'lishi mumkin. Shu bois Turkiyaning tashqi siyosati ikki davlat chegarasidagi separatistik va terroristik harakatlarni keskin kamaytirishga asoslanadi. Xususan, Turkiya tomonidan "Furot qalqoni", "Zaytun novdasi", "Tinchlik bulog'i", "Panja kalit" va "Panja qilich" singari operatsiyalarning amalga oshirilishi to'g'ridan-to'g'ri Suriya va Iroqdagi kurd harakatlarini yo'q qilishga qaratilgan edi.

Turkiya tomonidan Suriyadagi kurd harakatlarini yo'q qilishga qaratilgan operatsiyalar:

"Furot qalqoni" operatsiyasi. 2016-yil 24-avgust kuni Turkiya BMT Nizomining 51-moddasida nazarda tutilgan o'zini o'zi himoya qilish huquqidan foydalanayotganini e'lon qiladi va Suriya bilan chegarada "Furot qalqoni" operatsiyasini boshlaydi. Milliy Xavfsizlik Kengashining matbuot bayonotida (2016-yil 30-noyabr) operatsiyadan maqsad BMT Nizomi doirasida chegara xavfsizligini ta'minlash va ISHID terrorizmiga qarshi kurashish, shuningdek, PKK terror tashkiloti va unga aloqador PYD/YPGning Turkiya ostonasida terror koridori o'rnatishiga ruxsat berilmasligi ta'kidlanadi.

"Furot qalqoni" operatsiyasi sharqda Furot daryosi orasidagi hudud bilan g'arbdagi Azaz atrofidagi isyonchilar nazorati ostidagi hududda amalga oshirildi. "Furot qalqoni" operatsiyasi orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlarni quyidagicha sanab o'tish mumkin: 1) Turkiya hududidagi hujumlarni to'xtatish uchun ISHID terrorchilarini Turkiya chegaralaridan siqib chiqarish; 2) ISHIDga qarshi koalitsiya kuchlarining terrorizmga qarshi operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash; 3) Suriya ichida eni 91 km va chuqurligi 50 km bo'lgan xavfsiz hududni tashkil etish; 4) PKK/YPG terroristlarini Manbij tumanidan Furot daryosining sharqiy sohiliga surish. Bu orqali Turkiya o'z chegarasi bo'ylab PKK/YPG ekspansionizmining oldini oladi va shu tariqa mintaqadagi PKK/YPG yo'lagiga qiyin to'siqlar yaratib, undan o'tib oladi.

Xavfsiz hudud yaratish maqsadida boshlangan operatsiyada Jarablus viloyati Azaz-Jarablus liniyasida joylashgan hududlar ISHID va PYDdan butunlay tozalandi va nazoratga erishildi. "Furot qalqoni" operatsiyasi doirasida 243 aholi punkti va taxminan 2015 km² maydon 198 kundan keyin Turk Qurolli Kuchlari va Turk Qurolli Kuchlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ozod Suriya Armiyasi tomonidan nazoratga olindi. 2016-yil 24-avgustda boshlangan operatsiya 7 oy 5 kun davom etib, 2017-yil 29-mart kuni Rejep Tayyip Erdo'gan boshchiligidagi o'tkazilgan Milliy Xavfsizlik Kengashi yig'ilishida transchegaraviy operatsiyalarning birinchi bosqichini tashkil etgan "Furot qalqoni" operatsiyasi muvaffaqiyatli yakunlanganligi e'lon qilindi.

"Zaytun novdasi" operatsiyasi. Turk Qurolli Kuchlari 2018-yilning 20-yanvar kuni "Zaytun novdasi" operatsiyasini boshladi. Bu operatsiya, shubhasiz, PKK, PYD, ISHID kabi terror tashkilotining mintaq va Turkiya Respublikasida xalqqa tahdid bo'lgan harakatlari natijasida amalga oshirildi. "Zaytun novdasi" operatsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Huquqlarni qonuniy himoya qilish 51-moddasiga va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi rezolyutsiyalariga muvofiq tarzda boshlandi. Xuddi "Furot qalqoni" kabi bu operatsiya Turkiyaning janubiy chegarasida orzu qilingan terror koridorini bartaraf etish, oqibatda terror tashkilotlarining mintaqadagi bosimiga chek qo'yish va mintaqada tinchlikni tiklashni maqsad qilgan.

"Zaytun novdasi" operatsiyasi (turkcha: Zeytin Dalı Harekatı) Turkiya Qurolli Kuchlari va Suriya Milliy Armiyasi (SNA) tomonidan Suriya shimoli-g'arbidagi ko'pchilik kurdlar yashovchi Afrin tumanida xalq himoyasi bo'linmalariga (YPG) qarshi o'tkazilgan transchegaraviy harbiy operatsiya hisoblanadi. Afrin Suriyaning shimoli-g'arbiy qismida, Halab shahridan 57 km shimolda va Turkiya chegarasidan 30 km uzoqlikdagi hududdir. Afrin Turkiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ozod Suriya Armiyasi (FSA) nazoratidagi ikki strategik hudud: Azaz va Idlib o'rtasida joylashgan.

Mazkur operatsiya 2018-yil 20-yanvarda boshlanib, 57 kun davom etadi va 2018-yil 18-mart kuni harbiy operatsiya yakuniga yetib, Afrin hududi terrorizmdan tozalandi. Operatsiya natijasida 200 dan ortiq turar joy hududi terrorchilardan tozalandi va 2 ming kvadrat kilometr maydonda nazorat o'rnatildi. Turk Qurolli Kuchlarining harakatlari

ostida terroristlar tomonidan o'rnatilgan portlovchi moddalar ham yo'q qilindi. Bir tomondan mintaqada terror izlari o'chirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy hayot qayta tashkil etildi.

"Tinchlik bulog'i" operatsiyasi. Turkiya xavfsizligiga nisbatan tahdidlar va dushmanona munosabat kuchayishi natijasida Turk Qurolli Kuchlari tomonidan 2019-yil 9-oktyabr kuni BMT Konvensiyasining 51-moddasida tartibga solingan xalqaro huquq va o'zini himoya qilish huquqi doirasida Turkiya Suriya shimoli-sharqida "Tinchlik bulog'i" operatsiyasini boshlaydi. "Tinchlik bulog'i" operatsiyasi Turkiya Qurolli Kuchlari va Suriya Milliy Armiyasi tomonidan Suriya Demokratik kuchlariga, keyinroq Suriya Arab Armiyasiga qarshi Suriya shimolida o'tkazilgan transchegaraviy harbiy operatsiya hisoblanadi. Operatsiyaning maqsadi chegaralar xavfsizligini ta'minlash, janubda terror koridori yaratilishiga yo'l qo'ymaslik, ko'chirilgan suriyaliklarning o'z uylariga qaytishini ta'minlash edi.

Suriya shimoli-sharqidagi "Tinchlik bulog'i" operatsiyasi natijasida 605 ta aholi punkti terrorchilardan tozalandi, 200 000 ga yaqin suriyaliklar o'z yurtlariga va qishloqlariga eson-omon va ixtiyoriy ravishda qaytishdi. Tinch aholi hayotini xavf ostiga qo'ygan minalar/YPKlar, boshpana va tunnellar birin-ketin yo'q qilindi. Turk askarlari mehnati bilan ta'mirlangan maktablarda 35 ming nafar o'quvchi yana o'qishni boshladi va davom ettirmoqda. 250 mingdan ortiq suriyalik fuqarolar davlat shifoxonalari va ishga tushirilgan mobil sog'liqni saqlash bo'linmalari orqali ko'rikdan o'tkaziladi.

"Qishki burgut" operatsiyasi. 2022-yil 2-fevral kuni Turkiya Mudofaa vazirligi xalqaro huquq normalari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 51-moddasi va BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurashga oid rezolyutsiyalariga muvofiq, Iroq va Suriya shimolidagi baza sifatida foydalanayotgan Malikiya, Sinjar va Qorajiq hududlarida terrorchilar deb ataluvchi guruhlariga qarshi "Qishki burgut" operatsiyasini boshladi. Operatsiyada 60 ga yaqin samolyot ishtirok etdi, Suriya va Iroq shimolidagi Derik, Sinjar va Qorajiq mintaqalaridagi 80 ga yaqin nishon yo'q qilindi.

Vazirlik bayonotida yozilishicha, operatsiya PKK/KJK/YPG terrorchilarini zararsizlantirish, Iroq va Suriya shimolidan fuqarolar va xavfsizlik kuchlarini nishonga olgan terror hujumlarini bartaraf etish hamda chegara xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

"Panja-qilich" operatsiyasi. 2022-yil 20-noyabrda Turkiya harbiy-havo kuchlari Suriya Demokratik kuchlari va Suriya armiyasining Suriya shimolidagi (Halab, Raqqqa, al-Hasaka) pozitsiyalariga hamda Shimoliy Iroqdagi Kurdiston ishchi partiyasiga qarshi bir qator havo hujumlarini amalga oshirgan "Panja-qilich" operatsiyasini (turkcha: Pençe-Kılıç Operasyonu) boshladi. Operatsiya doirasida Suriya shimolidagi Tel Rifat, Kobane va uning atrofi, Derbesiye, Maranez, Malikiye, Ayn Iso, Ayn Dagne, Iroq shimolidagi Qandil, Sulaymoniya va Sinjardagi nishonlarga zarba berildi.

Operatsiyada PKKga tegishli ko'plab qurol omborlari yo'q qilindi. Bundan tashqari, Tel Rifat mintaqasida PKKdan tashqari 12 SDF jangarisi havo operatsiyasi bilan zararsizlantirildi. Kobanini nishonga olgan turk samolyotlari PKK/YPG bazalari joylashgan joylarga 8 marta zarba berdi. Shuningdek, PKK yuqori darajadagi yo'qotishlarga uchragani ma'lum qilindi.

Operatsiya boshlanganidan keyin ko'plab PKK qo'mondonlari va HDPning Yevropadagi vakolatxonasi bayonot berib, operatsiyani to'xtatishni so'radi. Milliy Mudofaa vazirligi operatsiya BMT Nizomining 51-moddasiga muvofiq o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi sifatida amalga oshirilganini e'lon qiladi.

Tabiiyki, Turkiyaning Suriyaga go'yo o'z uyidek qo'shin kiritib, harbiy operatsiyalarni amalga oshirishi xalqaro huquq nuqtayi nazaridan davlatlarning suvereniteti va chegaralar daxlsizligi tamoyillarining buzilishi sanaladi.

Xulosa

Mahalliy olim H. Azimovning yozishicha, bir qator tahlilchilar va tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, Turkiya Suriya bilan chegaradagi amaliyotlari orqali Suriyadagi harbiy mavjudligini kengaytirish va shu asnoda Suriya inqirozi bo'yicha AQSh, Rossiya va Eron bilan diplomatik savdo qilish jarayonlarida o'z pozitsiyasini mustahkamlashni maqsad qilgan. Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri M. Chavusho'g'li bir safar uning mamlakati "jang maydonida ham, muzokaralar stolida ham kuchli bo'lishi lozim"ligini alohida ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, Turkiyaning harbiy amaliyotlari Bashar Asad rejimiga qarshi harbiy va diplomatik choralar qo'llanilishi uchun jiddiy bosimlarni kuchaytirishga yo'l ochib berdi. Anqaradagi Rossiya tadqiqotlari instituti direktori Solih Yilmazning fikricha, Idlib bilan bog'liq vaziyatning prinsipial ahamiyati shundaki, Suriyaning ma'lum qismlarida o'rnatilgan nazorat asosida Turkiyada Suriya hukumatidan konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish to'g'risidagi talablarini mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ldi. Turkiyaning amaliyotlarini nafaqat AQSh va Isroil, balki Eron va yetakchi arab davlatlari ham keskin tanqid ostiga oldi. Xususan, Isroil Bosh vaziri Benyamin Netanyahu Turkiyaning Suriya bilan chegarasidagi amaliyotlarini Suriyadagi kurd xalqini "etnik tozalash" sifatida baholadi. U o'z bayonotida shunday ta'kidladi: "Isroil Turkiyaning Suriya hududidagi kurd hududlariga bosqinini keskin qoralaydi, Turkiya va uning bo'linmalari tomonidan kurdlarni "etnik tozalash" siyosatidan voz kechishga chaqiradi". "Tinchlik bulog'i" operatsiyasi boshlangandan so'ng Arab Davlatlari Ligasi Tashqi ishlar vazirlari 12-oktyabr kuni Turkiyani xalqaro huquq normalarini qo'pol ravishda buzishda aybladi. Boshqa arab davlatlaridan farqli ravishda faqatgina Qatar amiri Tamim bin Hamad Al Toni Anqara bilan hamfikir ekanligini ma'lum qildi. Eronning sobiq tashqi ishlar vaziri Javod Zarif Turkiya tomonini Suriya hududiy yaxlitligini hurmat qilishga va 1998-yildagi Adana kelishuviga rioya etishga chaqirdi [1].

Shunday bo'lsa-da, Turkiya Suriyada amalga oshirgan harbiy amaliyotlarining xalqaro huquq tamoyillariga zid emasligini, BMTning o'z-o'zini himoya qilish va terrorizmga qarshi kurash normalari asosida amalga oshirilayotganini bot-bot takrorlashi Anqaraning qat'iy pozitsiyasini ko'rsatib beradi. G'arb tarafidan Turkiyaning ushbu xatti-harakatlariga qarshi hech qanday sanksiyalar qo'llanmasligining asosiy sababi shundaki, Turkiya, birinchidan, NATOning a'zosi, ikkinchidan, G'arb davlatlari Iroq Kurdistonining neftidan Anqara orqali foydalanishni rejalashtirgan. Qolaversa, Turkiyaning mintaqadagi o'rni va roli alohida e'tiborga olinadi.

Umuman, bugungi rasmiy Anqara hukumati kurdlar bilan bog'liq ichki va tashqi siyosatda realizm yo'lidan bormoqda. Kurdlar masalasining mamlakat hududiy yaxlitligi bilan bog'liq nozik muammo ekanligi Anqarani kezi kelganda harbiy choralar ko'rishga undagani bilan alohida e'tiborga molikdir. Turkiyaning Suriyadagi kurdlar masalasidagi tashqi siyosati hozirgi vaqtgacha qattiq kuch tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, Iroqdagi tashqi siyosatida ham qattiq, ham yumshoq usullardan foydalanmoqda. Iroq Kurdistanidagi bir qator tashkilotlarning Iroq markaziy hukumatiga bo'ysunmasligi, Rossiya-Ukraina urushi oqibatida G'arb davlatlari oldida muqobil energiyaga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotgani Turkiyaning Iroq Kurdistanidagi neftni Yevropaga o'tkazishda vositachilik qilish imkoniyatlarining yanada oshishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azimov H. Y. Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri: siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 126–127. – URL: <https://oak.uz/index.php/pages/16387>
2. Erkmen S. Operation Peace Spring: Objectives, Current Situation and Its Future. – Geneva: Geneva Centre for Security Policy, 2020. – Syria Transition Challenges Project. – Discussion Paper No. 2. – P. 3–5. – URL: <https://www.gcsp.ch/publications/operation-peace-spring-objectives-current-situation-and-its-future>
3. İşyar Ö. G. Suriye Krizi ve Türk Dış Politikası: Uluslararası Politikanın Çözümlemeyen Düğümü. – 2. baskı. – Bursa: Sayda Yayınları, 2018. – 606 s. – S. 414. – ISBN 978-605-67845-5-2. – URL: <https://search.worldcat.org/title/1100422488>
4. Ülgen S., Kasapoğlu C. Operation Euphrates Shield: Aims and Gains // Anadolu Agency. – 2017. – 19 January. – URL: <https://www.aa.com.tr/en/analysis-news/operation-euphrates-shield-aims-and-gains/730531>
5. Мазур О. А. Курдский вопрос в политическом конфликте в Сирии. – Москва: Институт Ближнего Востока, 2019. – 122 с. – С. 32–37. – URL: <https://elibrary.ru/nodes/86937-mazur-o-a-kurdskiy-vopros-v-politicheskom-konflikte-v-sirii-m-2019>
6. Uzun A. "Living Freedom": The Evolution of the Kurdish Conflict in Turkey and the Efforts to Resolve It. – Berlin: Berghof Foundation, 2014. – Transitions Series No. 11. – P. 13–18. – URL: <https://berghof-foundation.org/library/living-freedom-the-evolution-of-the-kurdish-conflict-in-turkey-and-the-efforts-to-resolve-it>
7. Goksedef E. The Strategy Behind Operation Olive Branch // TRT World. – 2018. – URL: <https://www.trtworld.com/article/13102629>
8. Türkiye Cumhuriyeti Millî Savunma Bakanlığı. Barış Pınarı Harekâtı. – Ankara, 2019. – URL: <https://www.msb.gov.tr/BarisPinarHarekatı>
9. Republic of Türkiye Ministry of Foreign Affairs. Relations between Türkiye-Syria. – URL: <https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkiye%E2%80%93syria.en.mfa>
10. Turkey Announces Winter Eagle Air Operation Against Terrorists in Syria and Iraq // The Syrian Observer. – 2022. – 3 February. – URL: <https://syrianobserver.com/foreign-actors/turkey-announces-winter-eagle-air-operation-against-terrorists-in-syria-and-iraq.html>
11. United Nations. Charter of the United Nations. – San Francisco, 1945. – Chapter VII. – Article 51. – URL: <https://legal.un.org/repertory/art51.shtml>
12. United Nations Security Council. Resolution 1373 (2001), adopted on 28 September 2001. – S/RES/1373 (2001). – URL: <https://digitallibrary.un.org/record/449020>
13. United Nations Security Council. Resolution 2178 (2014), adopted on 24 September 2014. – S/RES/2178 (2014). – URL: <https://www.un.org/securitycouncil/ctc/content/security-council-resolutions>
14. United Nations Security Council. Resolution 2396 (2017), adopted on 21 December 2017. – S/RES/2396 (2017). – URL: <https://www.un.org/securitycouncil/ctc/content/security-council-resolutions>
15. Adana Mutabakatı [Adana Agreement]. Türkiye Cumhuriyeti ile Suriye Arap Cumhuriyeti arasında imzolangan kelishuv. – Adana, 20 October 1998. URL: <https://cdn.tbmm.gov.tr/KKBSPublicFile/D23/Y5/T1/WebOnergeMetni/c276e3f8-40c5-463a-bb6b-32cff71e40ca.pdf>